



UDK:81'373.44

Dildora DJAFAROVA,
O'zbekiston Milliy Universiteti dotsenti
E-mail: dildora.djafarova@gmail.com

O'zMU professori, f.f.d A.Mamatov taqrizi asosida

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF ARCHAIC WORDS IN EXPRESSING "HISTORICAL MEMORY" IN FRENCH AND UZBEK PHRASEOLOGY

Annotation

Life, time, era, socio-political life, history, historical information are changing. As a result, people's material and spiritual way of life, state structure, religious, historical, and even ethnographic ideas are changing and being updated. Such changes in daily and material, political life lead to wear and tear of household goods, clothes, and consumer goods. Due to these processes, archaic words appear in speech and linguistics. Because some words become old and new ones appear in the oral and written speech of the speakers. The role of "historical memory" in the disappearance of archaic words and the emergence of new words in human speech is incomparable. This problem has been widely studied in foreign linguistics, based on various theories, concepts, approaches, positions, directions.

Key words: Historical memory, phraseological unity, archaism, syntactic archaism, historism, mythology, folk etymology, motivation, necrotism, deonymization.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ АРХАИЧНЫХ СЛОВ В ВЫРАЖЕНИИ «ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ» ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ФРАЗЕОЛОГИИ

Аннотация

Изменяются жизнь, время, эпоха, общественно-политическая жизнь, история, исторические сведения. В результате изменяются и обновляются материальный и духовный образ жизни людей, государственное устройство, религиозные, исторические и даже этнографические представления. Подобные изменения в повседневной и материальной, политической жизни приводят к изнашиванию предметов домашнего обихода, одежды, товаров народного потребления. Благодаря этим процессам в речи и лингвистике появляются архаичные слова. Потому что в устной и письменной речи говорящих некоторые слова устаревают и появляются новые. Роль «исторической памяти» в исчезновении архаичных слов и появлении новых слов в человеческой речи несравнима. Данная проблема широко изучается в зарубежной лингвистике на основе различных теорий, концепций, подходов, позиций, направлений.

Ключевые слова: Историческая память, фразеологическое единство, архаизм, синтаксический архаизм, историзм, мифология, народная этимология, мотивация, некротизм, деонимизация.

FRANSUZ VA O'ZBEK FRAZELOGIYASIDA "TARIXIY XOTIRANI" IFODALASHDA ARXAIK SO'ZLARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Hayot, zamon, davr, ijtimoiy-siyosiy hayot, tarix, tarixiy ma'lumotlar o'zgarib turadi. Natijada kishilarning moddiy-ma'naviy turmush tarzi, davlat tuzilishi, diniy, tarixiy, hattoki etnografik tasavvurlari ham o'zgarib, yangilanib boradi. Kundalik va moddiy, siyosiy hayotdagi bunday o'zgarishlar ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechaklar, iste'mol mollari eskirishiga olib keladi. Mazkur jarayonlar sababli nutqda, tilshunoslikda arxaik so'zlar vujudga keladi. Chunki til sohiblarining og'zaki va yozma nutqida ayrim so'zlar eskirib, yangilari paydo bo'ladi. Insonlarning nutqida arxaik so'zlarning yo'qolishi, yangi so'zlarning paydo bo'lishida "tarixiy xotira"ning o'rni beqiyosdir. Mazkur muammo xorij tilshunosligida juda keng o'rganilgan bo'lib, ular turlicha nazariyalar, kontseptsiyalar, yondashishlar, pozitsiyalar, yo'nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Tarixiy xotira, frazeologik birlik, arxaizm, sintaktik arxaizm, istorizm, mifologizm, xalq etimologiyasi, motivatsiya, nekrotizm, deonimlashtirish.

Kirish. "Tarixiy xotira" tushunchasi – psixologiya, falsafa, tarix fanlarining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, tarixiy madaniyatni kengaytirish, yangilash, tarixning ma'nosi va mazmuni, gumanitar fanlarning nazariy hamda uslubiy qatlami o'rtasidagi munosabatlarni o'zida namoyon etadi hamda ilmiy kontseptual va terminologik tafovutlarga qaramay, ushbu ilmiy yo'nalishdagi nazariy o'zgarishlar muhim umumiy xususiyat kasb etadi. Tarixning asosiy mavzusi o'tmish voqeasi emas, balki u haqidagi xotira, unda ishtirok etganlar va zamondoshlarning hayotida aks etgan tasvir hamda ularni keyingi avlodlarga yetkazishdir. "Tarixiy xotira" tushunchasi "ideal haqiqat" sifatida namoyon bo'lib, frazeologik birliklar tarkibida hamda tilshunoslik sohasida alohida tadqiq qilinmagan. Ayniqsa, qardosh bo'lmagan fransuz va o'zbek tillari doirasida "tarixiy xotira"ga oid

frazeologik birliklar hanuzgacha o'rganilmagan. Ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligida ham hozirgacha tarixiy xotirani ifodalovchi frazeologik birliklar hamda ularning lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan alohida ilmiy tadqiqot ishlari umuman mavjud emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi kunda o'zbek adabiy tilida tarixiy xotiraga oid frazeologik birliklarning tadqiq qilinishi dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar ro'yxati. Tilshunoslikda arxaik so'zlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa frazeologik birliklar tarkida arxaik so'zlar mavjud bo'lib, ular har millatning yashash sharoiti, shevalari, jargonlarlari bilan bog'liqdir. V.I.Arangel'skiyning fikricha "frazeologiya umumiy tilshunoslikning muhim tarmog'i hisoblanib, "so'z belgilarining birikmasidir" [1].

Tilshunos T.N.Fedulenkoning ta'kidlashicha, "frazeologik birliklar komponentining genetik manbai – so'zni rasmiy va mazmun jihatdan qayta ishlab chiqadi, so'z esa inson madaniyati va tarixining soqov guvohidir" deb aytadi.

A.Gertsenning aytishicha, "nutqimizda mavjud bo'lgan so'z manbalarini qirg'oq to'liqini kabi, butun dunyo tarixi okeanining bosimini his qilishingiz mumkin" deb ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. V.M.Mokienko ilmiy ishlarida yulduzlar bilan eskirgan so'zlarni solishtiradi, uning fikricha "frazeologiya so'ngan yulduzlarning nurini mujassamlashtiruvchi o'ziga xos sayyora", - deb nomlaydi. Frazeologiya tarkibida mavjud bo'lgan arxaik so'zlar to'g'risida bir nechta olimlar o'zlarini fikrlarini, ilmiy qarashlarini bildirib o'tganlar.

Masalan, P.P.Vetrovning ta'kidlashicha, "shunday frazeologik birliklar borki, ular rivojlanib borarkan, o'z tarkibining arxaik elementlarini saqlab qolish yoki o'zgartirish holatini davom ettiradi, ular boshqa til birliklari kabi tirik organizmlar hayoti bilan metaforik jihatdan taqqoslanadi, hamda ko'p yoki kamroq vaqt davomida tilda yashaydi va til bilan yo'qolishi mumkin [2].

Tahlil va natijalar. Har bir tilda arxaik so'zlar turlicha nomlar bilan ishlatiladi. Masalan grek tilida frazeologik birliklarning bir qismi sifatida ishlatiladigan va alohida ma'noga ega bo'lmagan so'zlar haqida gapirganda ba'zi mahalliy frazeologlar (masalan, N. N. Amosova, L. I. Royzenzon, A. D. Reichstein va boshq.) grekchadan – "nekrotizm" atamasini ishlatadi. Mazkur so'z – jasad, o'lik degan ma'nolarni anglatadi Ammo, fransuz lingvistik adabiyotida esa "expression hapaxique" nomi bilan yuritiladi. Ushbu so'z ham fransuz tiliga grek tilidan kirgan bo'lib, faqat bir marta aytilgan, nomlangan degan ma'noni bildiradi. Hozirgi kunda zamonaviy tilshunos olimlar tomonidan fransuz tilida muomaladan chiqqan so'zlar "archaique" nomi bilan yuritiladi.

Frazeologiyaning o'ziga xos differentsial xususiyatlardan biri ularning tarkibidagi arxaik elementlarning uzoq muddat saqlanishidir. L.N. Myasnikovning fikriga ko'ra, "nekrotizmlar frazeologik birliklarning tarkibiy qismlari sifatida so'z birikmalarining boshqa qatlamlari frazeologizmini yaratmaydi, faqat unga hamroh bo'ladi"[4].

Leksik komponentlar, shuningdek, bu komponentlar orasida mavjud bo'lgan grammatik bog'lanishlar til faktlarining ma'lum majmuini tashkil etib, ular ham til jamoasining bir avlodidan ikkinchisiga o'tadi. Har bir avlod mavjud voqelikni tasvirlash uchun o'zining mavjud til shakllari va ifoda yo'llaridan foydalanadi, shu bilan til boyitilib, rivojlanib o'ziga xos xususiyat kasb etadi.

G.G.Xazagerovning fikriga ko'ra "millat o'z-o'zini saqlab qolish uchun harakatga o'xshash maxsus tizim bo'lib, bu holatda til ishtirok etadi, til emas, arxaik axborot ombori, balki o'zgaruvchan tarixiy muhitda mavjud bo'lgan tirik vosita hamdir"[6].

"Plein comme un barrique" iborasining aynan tarjimasi "bochkadek mast" degan ma'noni bildirib, xalq etimologiyasi orqali noto'g'ri, ya'ni buzilish holatlari mavjud. Chunki plein somme un bourrique bo'lishi kerak, frantsuz bourrique eshak ma'nosini ifodalaydi. [8]. Mazkur ibora esa o'zbek xalq millati og'zaki nutqida "moldek ichgan" tarzida ishlatiladi. Masalan, yashamagur bugun ham moldek ichdingmi? Qizig'i shundaki, zoosemizmlar ko'pincha xalq-etimologik buzilishlarning o'rnini bosuvchi sifatida ishlatiladi, ayniqsa bu jarayon frantsuz tilida yaqqol ko'zga tashlanadi.

"Chapog'ini olaman deb, ko'r qildi" iborasining hozirgi kunda ishlatiladigan varianti "bitta ishni bajaraman deb, ikkinchisini chiqardi" tarzida qo'llaniladi. Ammo, qadimiy varianti "chapog'" – bu bir ifloslikdan paydo bo'ladigan ko'z og'rini kasalligi orqali vujudga kelgan.

O'tmishda bu kasallikka yo'liqqan odam nochor tabibga ko'rsatishga majbur bo'lardi. Tabib esa bo'lar-bo'lmas dorilar bilan ko'zni davolash o'rniga ko'r qilib qo'ygan va shu jarayon orqali ushbu ibora vujudga kelgan [8].

"Avoir des yeux de lynx" frazeologik birligi "silovsindek ko'zlari bor"ni bildirsa, ibora sifatida "uzoq masofani ham yaxshi ko'radi"ni anglatgan, ya'ni lynx o'zida favqulodda ko'zining o'tkiriligi bilan ajralib turgan va bulutlar orasidan uzoqni ko'ra oladigan "Argo" kemasi yo'lboshchisi nomining noto'g'ri talqinini ifodalaydi Lyncee (grek. Lunkeos). Silovsin haqiqatdan ham ko'z o'tkirilini ifodalaydi, chunki bu hayvon devor orqali ham ko'ra olish qobiliyatiga egadir. Ayrim davlat ramzlarida ham, ayniqsa gerbshunoslikda silovsin to'liqlik va ko'rish qobiliyatining o'tkiriligi anglatadi. Masalan silovsin Pskov gerbida tasvirlangan. Silovsin yulduzlar turkumiga oid bo'lib, bu yulduzlar turkumi nomini XVII asrda astronom Yan Geveliy kiritgan, ya'ni bu turkum xira yulduzlar zanjirini ifodalaydi, tarixda bu zanjirni faqat silovsin kabi o'tkir ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan odamlarga ko'rishi mumkin deyilgan[6].

"Fier orgueilleux comme un rou" ifodasi tarjima jarayonida "bit kabi mag'rur" ma'nosida qabul qilinadi, biroq rou so'zi yosh xo'roz" ma'nosini anlatuvchi eski frantsuz tiliga poul yoki pol so'zi asosida paydo bo'lgan. [6]. Mazkur frazeologik birlik aslida "fier comme un coq" - xo'roz kabi mag'rur ifodasining ekvivalenti hisoblanadi. Chunki frantsuzlarda, hatto o'zbeklarda ham xo'roz mag'rurlik belgisini ifoda etadi. Ayniqsa fransuz millati uchun xo'roz ijobiy ma'noni bildirib, davlatning ramziga aylangan [10].

"Ecrire comme un ange" iborasi tarjimada "farishta kabi yozmoq"ni, tom ma'noda esa "chiroyli husnixat sohibi"ni anglatgan. Mazkur frazeologik birlik 1540 yilda Gretsiyadan Parijga kelgan mashhur xattot Anja Verjesa (Ange Vergece) nomi bilan bog'liq. Uning husnixati shunaqa chiroyli ediki, hattoki XVI asrda Frantsisxe I qo'l ostida Luvr nashrlari bosilgan yunon harflarining gravyuralari uchun namuna bo'lib xizmat qilgan. Mazkur ifodaning dastlabki shakli ecrire somme Ange bo'lgan degan asoslar ham mavjud. [10]. Keyinchalik «Ange» nomi va "ange" so'zini aralashtirish natijasida shunday original obraz yaratildiki, u fransuz tilida keng tarqaldi, ya'ni "farishta kabi", "go'zal, mukammal" ma'nolarida ishlatila boshlandi.

Tadqiqotlarimizdan ko'rinayaptiki, fransuz tili misollarida so'zlarning fonetik yaqinligi muhim rol o'ynaydi, bu esa frazeologik birlik tarkibida muayyan birlikni leksik reinterpretatsiya qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, biroq til sohiblari tomonidan ishlatilgan arxaik so'zlarni tahlil qilishda etimologiyaning o'rni va ahamiyati zarur.

S.Ulmanning fikricha "xalq etimologiyasi" terminini ishlatishda yoki foydalanishda ko'p hollarda bu so'zning sotsiologik ma'nosida "xalq"ning aralashuvi haqida gap ketmaydi. Bunday "tarixiy xotira"ga oid til o'zgarishlariga nisbatan javobgarlik chalasavod yoki axborotni noto'g'ri talqin qiluvchi o'rta asr yozuvchilari va Uyg'onish davri ulamolari zimmasida yotadi" deb ta'kidlaydi.[5].

T.V.Tsivyanning aytishicha "tarixni mifologizatsiya qilish va boshqa tomondan esa xalq etimologiyasi kabi ikki jarayon o'rtasida muayyan ichki o'xshashlikni ko'rsatishdir. Xalq ongining tarixi uchun muhimlik o'tmishning haqiqiy voqealarining haqiqati emas, balki ularning xalq xotirasida qanday qilib saqlanib qolganligidir. O'tmishning mifologizatsiyasi o'z tarixi etnoslari xotirasini saqlab qolishga xizmat qiladi va xalq etimologiyasi milliy tilda kishilarning kundalik ongida mavjud bo'lgan dunyo manzarasini o'rnatadi [6].

P.Gironing fikriga ko'ra "tabiatda barqaror iboralarning motivatsiyasini saqlash zarur, chunki ular tarkibiga kiradigan so'zlar birlikni hosil qilsa-da, biroq ayrim ma'no mustaqilligini saqlab qoladi va ular tabiiy tasvirlarni

uyg'otishda davom etadi. Aynan shuning uchun frazeologik birliklar tarkibida arxaizmlar mavjud [5].

“Ko'zini moy bosib ketibdi” sintaktik arxaizm kishi semirsa hamma a'zolarini moy bitib to'lishib ketadi, shu bilan birga ko'z qovoqlari ham to'lishadi. Ba'zi odamlar yuqoriroq martabaga ega bo'ladilar. Shunday vaqtda o'sha odam o'zini tamom yo'qotib, shishinib ketadi va xalqni, o'zining eski do'stlarini unutib yuboradi, mana shunday vaqtda ushbu ibora ishlatilgan bo'lib, mazkur sintaktik arxaizm olmosh tushib qolgan, ya'ni “uning ko'zini moy bosib qolgan” bo'lishi kerak edi. Ammo, hozirda og'zaki nutqda “ko'zini shira bosib ketibdi” tarzida ishlatiladi [9].

A.G.Nazaryanning fikricha “arxaik frazeologizmlarning samarasiz tomoni bu ularni zamonaviy tilda iboralarining so'zlashuvchilar uchun ma'lum darajada tushunarsiz bo'lishidir”, deydi [5].

Fransuz tilining Belgiya versiyasida arxaizmlar frazeologik faollikni ko'rsatish va Frantsyaning frantsuz tili leksemalari o'rniga ishlatish uchun, til jamoasi istagini aks ettirib mahalliy til an'anasini qo'llab-quvvatlash maqsadida frazeologik birliklarning tez-tez ishlatiladigan variantlarini

tavsiya etadi. Masalan, “bouter le feu” iborasi o'rniga “mettre / foutre le feu” frazeologik birligi ishlatiladi. Ammo har ikkala iboraning tarjima-dagi ma'nosi bir xil, ya'ni “o't qo'yimoq” yoki “to'polon qilmoq” bo'lib, bouter – qo'yimoq fe'li frazeologik lug'atlarda qayd etilmagan arxaik fe'lidir.

A.G.Nazaryan ko'p hollarda arxaizmlarni o'z ichiga olgan frazeologizmlar qisman yoki to'liq qayta talqin qilinishini va ularning ko'pchiligi ba'zi hollarda eskilarini ko'chiradigan yangi ma'nolarni ishlab chiqishlarini ta'kidlaydi.

Xulosa va takliflar. Frazeologik birliklar doirasida lingvistik va tarixiy jarayonlarning o'zi doimo o'zaro aloqada bo'lib, muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltiradi va amalga oshiradi. Tarixning mifologizatsiyasi, tarixiy voqealarni iboralar asosida tarixiy xotira birliklari sifatida qayta qurish qobiliyatini yo'qotish – bu til xotirasining ta'sir yo'nalishi demakdir. Asl yoki avvalgi ishlatilishini yo'qotgan leksik birliklarning arxivlanishi, asl ma'nolari va shakllarining saqlanishi, eski grammatik modellar va sintaktik strukturalarning saqlanishi nutqiy etnik guruhning tarixiy xotira mexanizmi faoliyatining natijasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Архангельский В. Устойчивые фразы в современном русском языке. – Ростов-на-Дону: “Издательство Ростовского университета”, 1964. – 315 с.
2. Ветров П. Фразеология современного китайского языка: Синтаксис и стилистика. – М.: “Восточная книга”, 2007. – 368 с.
3. Мокиенко В. Образы русской речи: историко-этимологические очерки фразеологии. – М.: Флинта: “Наука”, 2007. – 464 с.
4. Мясников Л. Фразеологизмы в сборнике. <http://miresperanto.narod.ru/esperantologio/mjasnikov.htm>.
5. Назарян А.Г. Идиоматические выражения французского. - М.: «Просвещение», 1978. - 159 с.
6. Хаззагеров Г. На развалинах Вавилонской башни. Менталитет: картина мира или речевые стратегии? Научно-культурологический журнал RELGA (№21 [27] 06.11.1999). – Режим доступа: <http://www.relga.ru/Environ/WebObjects/tguwww.woa/wa/Main?textid=1912&levell=main&level2=articles>
7. Цивьян Т.В. Лингвистические основы балканской модели мира [Текст]. - М.: Наука, 1990. - 207 с.
8. Шомаксудов Ш., Долимов С. Қайроки сўзлар.-Тошкент:2018.-238 б.
9. Guiraud P. Les locutions francaises. -Paris: PUF, 1962.-126 p.